

1

Har pardani, G'olib, o'z navosi bordir,  
Har go'shani o'z fayzu safosi bordir.  
Pok ayladi jismimni jahon tashvishidan -  
Bangolani xush obu havosi bordir.

2

Umrin bo'yi taqdir qo'lida xor bo'ldim,  
Umrin bo'yi omadga umidvor bo'ldim.  
Sarmoya yo'g'-u, foyda xayolin qildim,  
Bir va'da yo'g'-u, ko'yida ko'p zor bo'ldim.

3

Men rozi emasman bersalar jannatni,  
Haq dargohidan turli-tuman ne'matni.  
Jon qayta tanamga kirsam, sarf etgay edim -  
Bir ko'rgali seni, bu buyuk davlatni!

4

Yo Rab, jahon ahliga dili xurram ber!  
Jannat tilaganga otashini ham ber!  
Shaddod[1] xafa o'tdi sendan ko'rmas o'g'il,  
Odam mulkin qavmiga qilmay kam ber!

5

Bemorman-u, may dardima darmon bo'lgay,  
Ham quvvati dil, ham rohati jon bo'lgay.  
Otamga[2] dedim: may ichgali mayl ayla,  
To boda ichish rasmi farovon bo'lgay!

6

Qo'rquv ila ko'nglim to band ermas edi,  
Hech narsaga qattiq payvand ermas edi.  
Orzum meni Ka'bayu safardan g'ayri -  
Tarki elu xotin, farzand ermas edi.

7

Dunyo sen uchun aysh-ishratiston bo'lsin!  
Shodlik guli yuz rangda namoyon bo'lsin!  
Keldi hayitu bahor xurramlik olib,  
Mendek necha yuz jon senga qurbon bo'lsin!

8

Ko'z oldida bemorni faqat turgay yor,  
O'z naf'u ziyoni-la ishi yo'q zinhor.  
Tolibga talab qilgani ne imkon bor?  
Yo'q mevasi bersa-da xino barg bisyor.

9

Suhan[3] suvi oldida bekor qandu nabot,  
Teng kelmas unga Nil ila Jayhunu Firot.  
Hind otli bu bir parcha yeri olamning -  
Zulmatdir-u go'yo, Suhan - obi hayot.

10

Har lahza azal lutfini yod etguchi bo'l,  
Har qancha balo ko'pmi, quvonch undan mo'l.  
Kufr ichra menu San'on aro farq bordir,

Ehson boshqa, toat haqi boshqadir ul.

11

Sen orzuni ko'p berding-u, sarmoyani kam,  
Qoshingda qiyomat kuni biz bo'lsak jam,  
Qo'y meni holimga - chekib hasrat-g'am,  
Men qilmagan ayshlarimni o'ylay ul dam.

12

Shodlik bazmida xastalarga ne quvonch?  
Jang ichra oyog'i bastalarga ne quvonch?  
Gar yog'sa bulutdan pokiza may, G'olib,  
Biz - ko'zayu jomshikastalarga ne quvonch?

13

Yuzing kabi yuz yo'q biror insonda,  
Pokiza vujud ham bu kabi hech jonda.  
Deding: sira parvo qilmagum gap-so'zga,  
Yomonlarning ko'zi lekin yomon-da!

14

Qashshoqlik olamida achchiq hayot,  
Toat-da qilolmaysan izlab najot.  
Koshki Haqdan ishorai savmu salot -  
Bo'lsa edi, farz bo'lganidek hajju zakot.

15

Koshki bu jahon yangidan ijod bo'lsa,  
Vayrona bu kulbam zora obod bo'lsa.  
Mendan ko'ra yaxshi bu tuban olamda -  
Kim o'zgani(ng) g'am-qayg'usidan shod bo'lsa.

16

Tokay el ila tinchu salomat bo'lasan?  
Tokay nishonai malomat bo'lasan?  
G'am kechasining dedingki tongi bo'lmas,  
Bunday dema, munkiri qiyomat bo'lasan!

17

Manzil menga ham shu qora yer - qayga boray?  
Bor tuprog'ini sochdi boshimdan, naylay?  
Zar berdi-yu o'zgalarga, qo'ydi menga dom,  
U onadir o'zgalarga-yu, menga o'gay.

18

Na xanjaru o'q zaxmi ila o'lganman,  
Na sherni(ng) tushib changaliga so'lganman.  
Tishlayman-u lablarimni, qonin so'raman,  
Qon yuta yashashdan bezor bo'lganman.

19

Men yakkaxudolik g'amidan ozodman,  
O'z pokligima o'zim guvohman, shodman.  
So'z ichra salaflarga bugun shogird esam,  
Bas, erta xalafarga[4] tayin ustodman.

20

G'olib, mening katta bobomdir Zodsham,

Shundan yashadim qilich damida men ham.  
Sarkardalik o'tdi-yu, yopishdim she'rga -  
Bobomning singan qilichi bo'ldi qalam.

21

Qar kim esa yo'qchilik tufayli poymol,  
Rasvolik ila ham o'nnglanar goh ahvol.  
Biz tashnalab-u, xirqa-chi, botmish mayga,  
Soqiy, qadahing teshikmi - bu qanday hol?!

22

Ey, nega cho'chiysan bu qadar o'limdan?  
Dil mangu hayotnimi tilar o'limdan?  
Kuydim-ku tabiiy harorat o'tida men,  
Og'ir bu hayot, bilsang agar, o'limdan!

23

Ma'lumki, shikoyat aylamak yaxshi emas,  
Yor husni-yu dil dardi - so'zim mavzusi, bas.  
Holimni kelib ko'rmadi-yu, so'rmadi ul,  
Dushman yaralab, yor esa o'ldirdi, abas.

24

So'zishta sening e'timod aylab bo'lmas,  
Yolg'on ila o'zni shod aylab bo'lmas.  
Sen va'dani tog'day uyding - orasidan  
Bir yaxshi va'dani yod aylab bo'lmas.

25

Tun bo'yi agarchi mehmon qildim uni,  
Birmuncha o'zimga mehribon qildim uni.  
Ko'nglim sira xotirjam emasdir, chunki  
Vasl ichra o'zimdan badgumon qildim uni.

26

Ming narsa menga ato etishsa - Uniki!  
Jannatni peshonamga bitishsa - Uniki!  
Men Unga qilay fido yuz shodlik ila -  
Mahshar kuni tanga jon yetishsa - Uniki!

27

Dil yuzini tirnab, qondan yo'llar ochay,  
Ko'z orqali yuzga qonli yoshlar sochay.  
Umrin bo'yi qora kiyimasam Ka'ba kabi,  
Mo'minga[5] tutib aza jahannamga tushay...

28

So'z zavqini olam tushunib yetgay edi,  
Nomim meni qo'kdan-da o'tib ketgay edi,  
Din bo'lsa agar so'z ilmi netgay edi -  
Devonim ilohiy kitob etgay edi!

Ergash Ochilov tarjimalari  
G'azallar

Desam, G'olib, yerim - pok hoki Turon,  
Asil zotim bilan bag'rim farahmand.  
O'zim turkzodayu naslim-da turkzod,  
Buyuklar qavmi birla asli payvand.  
Urug' bo'lmish menga oybeklar aslan,

Kamolani oyga nisbat, balki o'nchandi.  
Otam kasbin desam dehqonchilikdir,  
Bobom bo'lmish zamindori Samarqand.  
Uzim haq fayziga shogird erurman,  
Erurman fozil insonlarga farzand.  
Yonishda hamnafasman barq ila men,  
Saxovatda bulutlar birla monand.  
G'amu anduxki bor, shodman alardin,  
Farah, baxt yo`q-ki anga dog'i xursand.  
Hama heshlarki o'tmish, yig'lagaymen,  
Tiriklikdan kularman bo'yla xushxand.

\* \* \*

Qoshi yosi qatlima tadbiridir,  
Ne ajab, uy toqida shamshirdir.  
Sevgida bemorligimni so'rmagil,  
Ul Iso ko'zguna tasvirdir.  
Men junun dashtida sargardon esam,  
G'am dilimning poyida zanjirdir.  
Bu ko'ngil vayronadir, favvora - ko'z,  
Sel siniq, bu uyga ne ta'mirdir.  
Vah, qalamning yoqasin yirtdi Asad,  
Chok dil inshosi bu tahrirdir.

\* \* \*

Muhabbat tuxmin ekdim jonima, anduh samar bo'ldi,  
Umidim shuki, qosid, yorga xolimdan xabar buldi.  
Yog'ib charxi falakdan bu jafokash boshima toshlar,  
Urushdi toshga toshu misli guldasta sharar buldi.  
Ko'ngil dardi ko'rinsa kuzguda yuz rang bilan, denglar  
Xazonu sog'aru dil qoniyu zahmi jigar buldi.  
Nigohim bo'ldi ovora seni izlab va lek oxir  
Qorong'u bo'ldi olam senga, dil sohibnazar bo'ldi.  
Junun ahlini zohid ayb etar bo'lsa ajab yo`qdir,  
Junun zanjiri zuhdning eshigiga bandi dar bo'ldi.  
Asad, gar g'uncha gulning shavqatiga borgoh bo'lsa,  
Diling Bedil yo'liga gul sochib, sating guhar bo'ldi.

\* \* \*

Parivash chehrasiga bersa oro,  
Qilar hayrat bilan ko'zgu tamosho.  
Ketar jonim olib karvonda yorim,  
G'uborin ko'zlarimga ayladim jo.  
Meni uyquga eltdi dardi hijron,  
Xayoli kiprigimda bo'ldi paydo.  
Kular gul yig'laganda bulbuli zor,  
Men u gul xandasidan xoru rasvo.  
Firoq o'qin pari ko'ksimga otdi,  
Ajab, g'am tori uzra undi ra'no.  
Fano dashtin tutar maskan murodim,  
Anga parvo yo`qu menga tasallo.  
Asad, ojizligingni angladingmi,  
Nechun bilding o'zingni buncha dono?

\* \* \*

Egam, ismingni aytmoq, jur'atin bergil zabonimga,  
Ko'ngil - xomush sadaf, dur jilvasin bergil bayonimga.  
Tarahhum ayla mendek bedilu mahzunga, lutf etgil,  
Charog'i subh ber shomimga, gul faslin hazonimga.  
Qilib nazzora jonimni olursan, ey pari paykar,  
Kuyarsan dastu poyingga hino oluda qonimga.  
Ko'rib ko'zguna ruhing aksini u chashmi mashshota  
Bo'libdir xunfishon, bersin to'zim bu xasta jonimga.  
Qilarkan tunda bulbul nola, tong uyqudan uyg'ongay,

This is not registered version of TotalDocConverter  
Umumiy ong'ingizni asos qilib oling.

Kamina takribu sidqin sinab ko'rmoqqa rahm aylab,  
Yubording ming tuman ranju mashaqqat imtihonimga.  
Jamolingdan saboh ravshan, guliston bo'yla zevardir,  
Asadga tor qafas qurding, nazar sol bu makonimga.

Erkin Vohidov tarjimalari

ب†‘ Shaddod - afsonaviy arab podshohlaridan birining nomi. U go'yo hudolik da'vo qilgan emish.

ب†‘ Bu yerda Odam Ato ko'zda tutilmoqda.

ب†‘ Suhan - Hindistondagi daryo.

ب†‘ Xalaf - ortdan kelayotganlar, avlodlar, vorislar.

ب†‘ Mo'min - G'olibga zamondosh shoir.